KUCH ADOLATDADIR Amir TEMUR

ADOLAT MEZONI

GAZETA 2010-YIL 3-MAYDAN CHIQA BOSHLAGAN // HUQUQIY-IJTIMOIY VA MA'NAVIY-MA'RIFIY GAZETA // ISSN 2181 - 483X WWW.ANDIJONSADOSI.UZ // № 42 (572) 2025-YIL, 4-OKTABR

«KORRUPSIYASIZ JAMIYAT - TARAQQIYOT KAFOLATI

O‘zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan «Adolat mezoni» gazetasining «Korrupsiyasiz jamiyat - taraqqiyot kafolati» loyihasi doirasidagi sahifa

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SOHASIDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI ISHTIROKINI KENGAYTIRISHNING DOLZARB MASALALARI



Andijon shahridagi “Ma’rifat uyi”da Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazining Andijon viloyati hududiy bo‘linmasi tomonidan “Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokini kengaytirishning dolzarb masalalari” mavzusida davra suhbati o‘tkazildi.

Tadbir Andijon viloyati adliya boshqarmasi va O‘zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi viloyat hududiy bo‘linmasi bilan hamkorlikda tashkil etildi.

Unda Andijon viloyati adliya boshqarmasi, mahalliy NNT va fuqarolik jamiyati boshqa institutlari rahbarlari, faollari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi subsidiya mablag‘lari doirasida o‘tkazilgan tadbirning asosiy maqsadi – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentabrdagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini yanada kengaytirish va ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-288-son Qarori mazmun-mohiyati va ahamiyatini keng targ‘ib qilish, ushbu sohada aniq taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat bo‘ldi.

Tadbirda joriy yilning 19-sentabr davlat rahbari tomonidan imzolangan 288-son Qaror fuqarolik jamiyati institutlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ishtirokini yanada kengaytirish va bu boradagi ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlashda yangi davrni boshlab bergani alohida qayd etildi.

Bundan tashqari, tadbirda ishtirokchilarining asosiy e’tibori korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini yanada kengaytirish, unga qarshi kurashish muammolari bo‘yicha mintaqaviy tadqiqot markazi faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi”da korrupsiyaga qarshi kurashishda nodavlat tashkilotlar ishtirokini yanada kuchaytirish, sohaga yo‘naltirilgan mintaqaviy tadqiqot markazini tashkil etish, markaz faoliyatini uslubiy va amaliy jihatdan qo‘llab-quvvatlash hamda uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash masalalariga qaratildi.

Bahs-munozaralarda so‘zga chiqqan “Adolat mezoni” gazetasining muharriri Maxpura Artiqova O‘zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan “Korrupsiyasiz jamiyat – taraqqiyot kafolati” nomli loyiha doirasida amalga oshirayotgan ishlari haqida to‘xtalib o‘tdi.

Shuningdek ishtirokchilarga loyiha doirasida chop etilgan gazetadan bepul tarqatildi.

Tadbir yakunida muhokama etilgan masalalar yuzasidan fuqarolik jamiyati institutlarining manfaatdor tashkilot va idoralar bilan hamkorligini yanada kuchaytirishga qaratilgan aniq taklif va amaliy tavsiyalari ilgari surilib, yaqin istiqbolda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan vazifalar belgilab olindi.

Dilbar ABDUMAJIDOVA,
“Adolat mezoni” muxbiri.

YANGI DAVRDA OCHIQLIK SIYOSATI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni imzolandi.

Farmonga ko‘ra, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashning 2025-yil 5-martda o‘tkazilgan kengaytirilgan yig‘ilishida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta’minlash bo‘yicha ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar ro‘yxati va amaliy chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

(Davomi 2-betda).

Ma’lumki, bugungi kunda korrupsiya dunyo miqyosida keng jamoatchilikni tashvishga solayotgan global muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Ushbu illat har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy zarar yetkazib, inson huquq va erkinliklarining poymol bo‘lishiga olib keladi. Shu bois, unga qarshi kurashish masalasi muhim ahamiyat kasb etdi. Jumladan, bu borada respublikamizda ham zarur choralar ko‘rilib, keng ko‘lamli amaliy ishlar olib borilmoqda.

JAMIYATNING MA’NAVIY USTUNLARINI YEMIRUVCHI ILLAT

Korrupsiyaga qarshi muvaffaqiyatli kurash tizimini barpo etishda xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribasini o‘rganish, unga tanqidiy yondashgan holda milliy qonunchilik va amaliyotga tatbiq etish lozim bo‘ladi.

(Davomi 2-betda).

To‘yxat

IJODDA TAJRIBA – QALAM CHAROG‘ON!



Ziyo Najmiy!

Bu insonni qadimiy va navqiron Eski shahar ko‘chalarida ko‘rar ekanman, yuzlarida samimiylik, so‘zlarida hikmat va oliyjanoblik zohirligini ilg‘ayman. Albatta, ushbu omillar qahramonimizning ongli hayotini ma’rifatga, yaxshilikka bag‘ishlab kelayotgani hosilasidir. Ehtimol, shundanmi, u kishining hozirgi ulug‘vor yoshini qarshilayotganligini ancha-muncha vaqtda sezmay ham qoladi kishi. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, teatr arboblari uyushmasi a’zosi Ziyo Najmiy Andijon shahrida ishchi oilasida tug‘ildi. Unga yaxshi niyatlar bilan otasi Ziyovuddin, deb ot qo‘ydi. Shu-shu bo‘ldi-yu, Ziyo akaning borlig‘i ilm va ma’rifat nurlariga to‘la boshladi. Shahardagi maktabda yaxshi o‘qidi, sobiq Toshkent davlat universitetining filologiya fakultetida tahsil oldi va Andijonga qaytib kelib, pedagogik faoliyatini boshlab yubordi.

Azaliy qalb ishtiyoqi esa, uning bora-bora Andijon adabiy muhitiga oshno bo‘lishiga turtki berdi. Bu borada unga rahmatli ustoz ijodkor Nusrat Abdusalom katta turtki bo‘ldi. Nusrat akani qahramonimiz birinchi ustoz sifatida tan oladi, har bir davrada uning yaxshi sifatlarini, ibratli tomonlarini, ijodga, g‘azalga, Devon tartib berishga undaganliklarini, hayotda ham ko‘p suhbatdosh bo‘lib, yashashning keng va ravon yo‘llariga mehribonlik bilan burib yuborganliklarini mamnuniyat bilan qayd etadi. Shuning uchun ham u Nusrat Abdusalomning yodini mangu diliga jo etgan. Biz, ustoz-shogirdni yuqorida aytganim, Eski shahar ko‘chalarida, turli-tuman adabiy-badiiy kechalarda, xususan, Bahodir Andijoniyning kitob taqdimotida birga-birga qatnashganliklarini, suhbatda bo‘lganliklarini ko‘p marotaba ko‘rganmiz.

(Davomi 4-betda).

«KORRUPSIYASIZ JAMIYAT – TARAQQIYOT KAFOLATI
O‘zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan «Adolat mezoni» gazetasining «Korrupsiyasiz jamiyat - taraqqiyot kafolati» loyihasi doirasidagi sahifa

YANGI DAVRDA OCHIQLIK SIYOSATI

(Davomi. Boshi 1-betda).

Korrupsiya va jinoyatchilikka qarshi kurashishda parlamentning rolini tubdan oshirish maqsadida Oliy Majlis palatalariga quyidagilar tavsiya etildi:

har yili byudjetdan eng ko‘p mablag‘ oladigan uchta vazirlik va idorada korrupsiyaviy omillarni aniqlab, ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar kiritish;



vazir va hokimlar lavozimiga nomzodlar tegishlicha Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari Kengashlarida ko‘rib chiqilayotganda ular tomonidan korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha aniq reja himoya qilinishiga oid tartibni qonun hujjatlarida belgilash;

xalqaro tajribani o‘rganib, kibermakonda korrupsiyaga qarshi samarali kurashish bo‘yicha mustahkam huquqiy baza yaratish yuzasidan takliflarni ishlab chiqish;

ishchi guruh tuzib “jinoyatchilikka qarshi kurashish haftaligi”da har oyning 1–5 sanalarida “qizil” toifadagi mahallalarda jinoyatlarning kelib chiqish sabablarini chuqur tahlil qilish;

hududiy prokurorlar va ichki ishlar organlari boshliqlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar berish hamda xalqchil tashabbuslar asosida qonunlarni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

Farmonga ko‘ra, Iqtisodiyotda korrupsiyaviy omillarning oldini olish maqsadida:

davlat xaridlarida sotib olinadigan tovar va xizmatlar narxi hamda uning o‘rtacha bozor narxi o‘rtasidagi tafovutning eng ko‘p yo‘l qo‘yiladigan chegarasidan chetga chiqqan holda xaridlarni amalga oshirgan mansabdor shaxslar javobgarlikka tortiladi;

2025-yilning 1-iyulidan yirik investitsiya loyihalarida korrupsiyaga qarshi xalqaro standartlar hamda yirik auksion shartlarini raqobatbardoshlik ekspertizasidan o‘tkazish tartibi joriy etiladi;

“Shaffof qurilish” milliy axborot tizimi qamrovi yanada oshirilib, bosqichma-bosqich xalqaro tashkilotlar ishtirokidagi loyihalarga joriy qilinadi.

2025-yil yakunicha:

xalqaro tender obyektlari bo‘yicha subpudratchilar “Shaffof qurilish” tizimi orqali jalb qilinadi;

qiymati 2 mln. AQSH dollarigacha bo‘lgan xalqaro moliya tashkilotlar hisobidan moliyalashtiriladigan mahalliy tenderlar “Shaffof qurilish” tizimida o‘tkaziladi;

xalqaro tenderlar bo‘yicha jalb qilingan chet el pudrat tashkilotlari shartnoma qiymatining kamida 60 foizini o‘z kuchi bilan bajarish tartibi joriy etiladi.

2026-yil 1-yanvargacha vazirlik va idoralar, mahalliy hokimliklar tomonidan ko‘rsatiladigan barcha davlat xizmatlarini tuman (shahar) kesimida aholining o‘zi baholaydigan tizim joriy etiladi.

Bunda aholi tomonidan “qoniqarsiz” deb baholangan vazirlik, idora rahbarlari hamda tuman (shahar) hokimlari shaxsiy javobgarligi belgilanadi.

Sun’iy intellekt asosida aholining kundalik hayotida uchraydigan savollariga mobil telefon orqali sodda va qulay shaklda javob olish imkoniyatini beradigan onlayn platforma ishga tushiriladi.

Umidbek XAKIMOV,
Andijon viloyat Adliya boshqarmasi sho‘ba boshlig‘i.

JAMIYATNING MA’NAVIY USTUNLARINI YEMIRUVCHI ILLAT

(Davomi. Boshi 1-betda).

Korrupsiya o‘ziga tamagirlikni qamrab olgan holda jamiyatning ma’naviy ustunlari hamda demokratik prinsiplarni yemirib, mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy taraqqiy etishi uchun ulkan xavf tug‘diradi.

Etimologik jihatdan “korrupsiya” - lotincha “corruptio”, ya’ni “buzish, sotib olish, pora evaziga og‘dirish” degan ma’nolarni anglatadi. Korrupsiya shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish demakdir.

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish bilan bog‘liq huquqiy mexanizmlarni takomillashtirishga qaratilgan bir qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

Xususan, 2017-yilning 3-yanvarida O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi hamda bir qator normativ-huquqiy hujjatlarda korrupsiyaning oldini olish va bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilandi.



Qonunda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari sifatida O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti belgilangan bo‘lib, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni qonun hujjatlariga muvofiq boshqa davlat organlari ham amalga oshirishlari nazarda tutilgan.

Binobarin, korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish, ta’lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta’lim va tarbiya masalalari Qonunning bir nechta moddalarida o‘z ifodasini topgan. Chunki huquqiy ong va huquqiy madaniyati yuksak bo‘lgan va huquqiy ta’lim va tarbiya jihatdan yetuk bo‘lgan insonlar salbiy illat bo‘lmish korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaydilar.

Bu borada, davlatimiz rahbari ko‘plab ma’ruza va chiqishlarida loqaydlik, beparvolik, poraxo‘rlik, korrupsiya, soxtakorlik, mansab vakolatini suiiste’mol qilishga qarshi kurash butun jamiyatning bosh maqsadiga aylanishi kerakligi to‘g‘risida ta’kidlab o‘tgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoniga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi.

Hozirda mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida aholining huquqiy ong va huquqiy madaniyatini oshirish Agentlik bilan bir qatorda barcha tashkilotlarning, shu jumladan banklarning ham ustuvor vazifalaridan biridir.

Korrupsiyani oldini olishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish doirasida “O‘zmilliybank” AJ tizimida Axborot va bank xavfsizligi departamenti Komplayens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi va uning joylardagi bosh mutaxassislari bank xodimlarining huquqiy ongini oshirish, targ‘ibot-tashviqot tadbirlarini yanada jonlantirish hamda samaradorlikka erishish, qonun ustuvorligini ta’minlash masalalarida taalluqli ishlarni olib bormoqdalar.

Ozodbek TO‘XTASINOV,
“O‘zmilliybank” AJning Andijon viloyati Bosh boshqarmasi boshlig‘i.

QURILISH SOHASIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH – USTUVOR VAZIFA SIFATIDA BELGILANDI



Andijonda “Korrupsiyaga qarshi kurash – ustuvor vazifa” mavzusida yig‘ilish bo‘lib o‘tdi. Tadbir Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi tashabbusi bilan tashkil etildi.

Yig‘ilishda boshqarma rahbariyati, tuman va shahar bo‘limlari mas’ullari hamda mutaxassislar ishtirok etdi.

Tadbirni boshqarma boshlig‘i Fazliddin Alijonov ochib, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi tizimida shaffoflik, halollik va qonun ustuvorligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar haqida ma’lumot berdi. Shuningdek, korrupsiyaning oldini olish va manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik sohadagi eng muhim vazifalardan biri ekanini ta’kidladi.

Yig‘ilishda boshqarmaning korrupsiyaga qarshi kurash bo‘limi bosh mutaxassisi Dilrabo Mamarasulova ham so‘zga chiqib, korrupsiyaning jamiyat va sohalar rivojiga salbiy ta’siri, manfaatlar to‘qnashuvi holatlari hamda ularni bartaraf etish mexanizmlari haqida to‘xtalib o‘tdi. Tizim xodimlariga davlat mablag‘laridan samarali foydalanish, qurilish ishlarida sifat va xavfsizlikni ta’minlash, halollik va shaffoflik tamoyillariga rioya qilish yuzasidan tavsiyalar berildi.

Yig‘ilish korrupsiyaga qarshi profilaktik tadbirlar samaradorligini oshirish, qonuniylikni ta’minlash hamda tizimda mas’uliyat muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi.

F. UBAYDULLAYEV.



21-oktabr — O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgan kun

TILNI ASRAMASAK, MILLAT QAYERGA BORADI?

Til milliy ma’naviyat, ma’rifat va madaniyatning eng xolis va xira tortmas ko‘zgusidir. Hadisi shariflarda «Kishining zebu ziynati, go‘zalligi uning tilidadir» deyiladi. Til – qalb tarjimoni. Chunki har bir so‘z, eng avvalo, qalb torlarida chertiladi. So‘ngra so‘zlarda jilolanib tinglovchiga yetkaziladi.

O‘zbek tilining eng ahamiyatli jihati shundaki, u shunday shirali, har bir quloqqa xush yoqadi, eshitgan inson entikib ketadi. Onalarimiz aytgan allalari-yu, bobo-buvilarimizdan eshitgan ertak, hikoya, rivoyat va masallar orqali yuragimiz tub-tubigacha kirib borgan, o‘z navbatida ona tilimizga, ona vatanimizga muhabbat uyg‘otgan. Inson dunyoni ona tilida his qiladi, ona tilida sevadi, orzu qiladi — bu til nafaqat so‘zlar yig‘indisi, balki xalqning yuragi, ruhiy merosi va tarixiy ajralmas qismidir.

Ayni kunlarda davlat tiliga e’tiborning yuksalib borayotganligi, ona tili ta’limining maqsad va vositalari yangilanayotganligi muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirish uchun xizmat qiladigan turli tipdagi lug‘atlarga ehtiyojni oshiradi. Bugun o‘zbek tilining bor bo‘y-bastini, boyligini ko‘rsatish va kelajak avlodning undan to‘la bahramand bo‘lishi uchun izohli va imlo lug‘atlari, umumiy o‘rta ta’lim o‘quvchilari uchun alohida turli nomlarda lug‘atlarning yaratilishi tilimizga bo‘lgan ehtiromning yorqin namunasi sanaladi.

Bugungi kunda ham maktab va oliy ta’lim muassasalarida o‘zbek tilini chuqur o‘qitish, ilmiy atamalarni shakllantirish borasida ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo ilmiy sohada ayrim fan-texnika atamalarining to‘laqonli muqobillari yaratilishi lozim. Bu esa adabiy til me’yorlarini to‘g‘ri qo‘llashni taqozo etadi. Tilshunos olimlar qayd etganidek, adabiy til me’yorlarini saqlash tilning sof bo‘lishini ta’minlaydi.

Afsuski, kundalik so‘zlashuvda chet so‘zlar va jargonlarning ortiqcha qo‘llanishi (masalan, “like”, “deadline”, “meeting”, “ok”, “mall”) o‘zbek tilining boy imkoniyatlarini soyada qoldirmoqda. Aslida esa ular o‘rnida “yoqdi”, “muddat”, “uchrashuv”, “xo‘p”, “savdo markazi” kabi so‘zlar ishlatilishi mumkin. Bu muammo ayniqsa yoshlar nutqida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi natijasida qisqa yozuvlar, emoji va o‘zlashma so‘zlar tilimizga kirib kelmoqda.

Raqamli texnologiya til uchun xavf emas, balki imkoniyat hamdir. Asosiysi, undan foydalanib ona tilida sifatli kontent yaratish, elektron lug‘atlar, onlayn darsliklar va ilmiy manbalarni ko‘paytirish lozim. Shunda tilning mavqei mustahkamlanib, globalizatsiya sharoitida ham o‘zligini saqlab qoladi.

Sabrina ABDUMALIKOVA,
Andijon davlat pedagogika institute Filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi.

MEROSXЎРЛАР ДИҚҚАТИГА!

Андижон шаҳрида яшаб, 2024 йил 13 октябрь куни вафот этган марҳум **КАБИЛОВА МАТЛЮБА ХАКИМОВНА**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, 3-кичик даҳа, 38-уй, 13-квартирасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Г.Х.Киргизбаев нотариал идорасига,

Андижон шаҳри, Чинобод кўчаси, 6-уйда яшаб, 1985 йил 6 февраль куни вафот этган марҳум **АБДУКАЮМОВ АБДУРАШИД,**

Андижон шаҳри, Найман кўчаси, 132/5-уйда яшаб, 2017 йил 25 март куни вафот этган марҳум **ДЖАМАЛДИНОВ КОБИЛЖОН КАХАРОВИЧ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Бобур шохкўчаси, 30/А-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус И.А.Узакбаев нотариал идорасига,

Андижон шаҳар, Қўшариқ МФЙ, 24-уй, 3-хонадонда яшаб, 2020 йил 28 август куни вафот этган марҳум **САРИМСАКОВ ДИЛШАДЖОН ХХХ,**

Андижон шаҳар, Первук Ахун Бабаев кўчаси, 24-уй, 3-хонадонда яшаб, 2019 йил 11 август куни вафот этган марҳум **SARIMSAKOVA XANIFA JURABAYEVNA**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Бобур шохкўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус М.И.Мамадалиев нотариал идорасига,

Андижон шаҳар, Саноат МФЙ, Бобур шохкўчаси, 1/Б-уйнинг, 4-хонадонида яшаб, 2025 йил 17 март куни вафот этган марҳум **SOBIROVA NASIBAXON NAJMIDINOVNA**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Тошкент кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Л.К.Турдикулов нотариал идорасига,

Хонобод шаҳри, Истиқлол МФЙ, Зиёкор кўчаси, 308/1-уйда яшаб, 2024 йил 12 сентябрь куни вафот этган марҳум **ANTONOV ANATOLIY STEPANOVICH,**

Хонобод шаҳри, Анҳор МФЙ, Анҳор кўчаси, 6-уйда яшаб, 2025 йил 30 март куни вафот этган марҳум **УСМАНОВ КУРВАНАЛИ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Хонобод шаҳри, Обод кўчаси, 134-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Н.Зулунов нотариал идорасига,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2005 йил 23 сентябрь куни вафот этган марҳум **АМИРОВ АХМАДАЛИ,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2005 йил 23 ноябрь куни вафот этган марҳум **ФАСХУТДИНОВ ФЛУР СИРАЗИТДИНОВИЧ,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2013 йил 28 декабрь куни вафот этган марҳум **USMANOV ERGASH,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 1995 йил 17 май куни вафот этган марҳум **НУРДИНОВ АБУКОЛОМ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси, 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ф.Н.Акбаров нотариал идорасига,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2011 йил 20 февраль куни вафот этган марҳум **ХАСАНОВ АКБАРАЛИ,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2015 йил 1 июнь куни вафот этган марҳум **BATIROV SADIK,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2024 йил 17 сентябрь куни вафот этган марҳум **AYTIYEV MAMASALI TASMAYEVICH,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2017 йил 3 декабрь куни вафот этган марҳум **MAMASADIKOV UMARALI**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси, 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ш.Ю.Рахимов нотариал идорасига,

Избоскан тумани, Қўшкўприк МФЙ, Дурафшон кўчасидаги уйда яшаб, 2025 йил 23 март куни вафот этган марҳум **ХУЖАМОВА ЖАМИЛА МИРКОЛОНОВНА,**

Избоскан тумани, Шодлик МФЙ, Уч қайрағоч кўчаси, 2-уйда яшаб, 2022 йил 22 апрель куни вафот этган марҳум **АЛИМОВ ЭРКИН,**

Избоскан тумани, Шодлик МФЙ, Бобур кўчасидаги уйда яшаб, 2010 йил 30 май куни вафот этган марҳум **НАСИРДИНОВ СОМИЖОН САЙФИЕВИЧ,**

Избоскан тумани, Гуркиров МФЙ, Заминдиёр кўчасидаги уйда яшаб, 2025 йил 15 февраль куни вафот этган марҳум **УРИНОВ АБДУКАДИР МАМАЖАНОВИЧ,**

Избоскан тумани, Қум кўча МФЙ, Сой бўйи кўчаси, 24-уйда яшаб, 2024 йил 27 ноябрь куни вафот этган марҳум **ЭРГАШЕВ КУЛДОШБОЙ УМАРОВИЧ,**

Избоскан тумани, Ботиробод МФЙ, Порлоқ нур кўчасидаги уйда яшаб, 2020 йил 22 май куни вафот этган марҳум **НИЯЗОВА КУМУШХОН**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Избоскан тумани, Нақшбанд кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус С.К.Ботиров нотариал идорасига,

Марҳамат тумани, Мингтепа МФЙ, Бобур шохкўчасидаги уйда яшаб, 2002 йил 12 апрель куни вафот этган марҳум **ЗИЯВУТДИНОВА ГАЙША ГАЗИЗОВНА,**

Марҳамат тумани, Барҳаёт МФЙ, Увайсий кўчасидаги уйда яшаб, 2020 йил 2 октябрь куни вафот этган марҳум **ШОКИРОВ ВОХОБЖОН,**

Марҳамат тумани, Марказий МФЙ, Қадрият кўчасидаги уйда яшаб, 2020 йил 31 октябрь куни вафот этган марҳум **ПУЛАТОВ АХМАДЖОН,**

Марҳамат тумани, Пахтакор МФЙ, Гулзор кўчасидаги уйда яшаб, 2025 йил 3 март куни вафот этган марҳум **ДОДОЖОНОВ ГОФУРЖОН ВАХОБОВИЧ,**

Марҳамат тумани, Йўламатол МФЙ, Қачар кўчасидаги уйда яшаб, 2024 йил 29 июль куни вафот этган марҳум **ТЎРАЕВА ШАРИПАХОН ГАНИЕВНА**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Марҳамат тумани, Бобур шоҳкўчаси, 38-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Т.Усмонов нотариал идорасига,

Пахтаобод туманидаги уйда яшаб, 2020 йил 26 октябрь куни вафот этган марҳум **ЭРГАШЕВ КУРБОНАЛИ,**

Пахтаобод туманидаги уйда яшаб, 2019 йил 22 октябрь куни вафот этган марҳум **ЛАТИПОВА МАТЛУБАХОН**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Пахтаобод тумани, Муаззинбой МФЙ, Олтин йўл кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Х.А.Рахмонов нотариал идорасига,

Қўрғонтепа тумани, Хўжатепа МФЙ, Фаровон турмуш кўчаси, 10-уйда яшаб, 2001 йил 18 ноябрь куни вафот этган марҳум **МАМАДИЯРОВ АХМАДЖОН**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Қўрғонтепа тумани, Мустақиллик кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Б.Б.Мамадалиев нотариал идорасига,

Қўрғонтепа тумани, Қорасув шаҳри, Шоштепа (собиқ Бирлик) МФЙ, Бунёдкор кўчаси, 14-уйда яшаб, 2025 йил 5 февраль куни вафот этган марҳум **ALIMQULOV RAXMONJON RAXIMOVICH**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Қўрғонтепа тумани, Мустақиллик кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.А.Зайнобиддинов нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Янги ҳаёт МФЙда яшаб, 2025 йил 20 январда вафот этган марҳум **ЖАББОРОВА МАТЛЮБАХОН ЛАТИПОВНА**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Р.Ёдгоров кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Ахмаджонов нотариал идорасига мурожаат қилишлари сўралади.

To‘yxat

IJODDA TAJRIBA – QALAM CHAROG‘ON!

(Davomi. Boshi 1-betda).

Shuning uchun bo‘lsa kerakki, Ziyo Najmiy she’riyatida g‘azal alohida o‘rin egallaydi. 1994-yilda Andijonda chop etilgan “Sizga talpinaman...” nomli mo‘jaz to‘plamiga kirgan g‘azallarning lirik nafosati, badiiyati, aynan Nusrat Abdusalom ohanglarini eslatadi:

Kuydirib ishq otashida kuymagaysan ne sabab,
Suydirib, dilbar, o‘zing hech suymagaysan ne sabab?

Shu tariqa, yuqoridagidek nafosatli va hayajonli baytlar bitish, insonlarga yaxshilik ulashish, shirin so‘z aytish, qayerda ishlamasin, o‘z kasbiga fidoyilik bilan yondashish Ziyo aka uchun ustozi o‘gitlari vositasida hayotiy boqiy dasturulamal bo‘lib qoldi.

Ziyo Najmiy atrofida Ma’murjon Boltaboyev, Rafiq Muxtor, Odiljon Nishonov, G‘ulomiddin Abdullayev kabi ijodkor ziyolilar davra qurgandi. Ularning ham pedagog-shoir ijodi rivojida u yoki bu darajada ta’siri seziladi.

“Sizga talpinaman...” kitobida, shuningdek, muallifning turli mavzulardagi she’rlari ham o‘rin olgan bo‘lib, ularning har biri shoir qalbidagi shodlik va alam tuyg‘ulari, yaxshiga havas, yomonga afsus va nafrat, tabiat go‘zalligidan, ishqdan, vafodan kuch olish kabi g‘oyalarni o‘zida mujassamlashtirolgani bilan ahamiyatlidir.

Ziyo Najmiy, avval aytilganidek, garchi, asli ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi bo‘lib, bu borada yuzlab, balki minglab qorako‘zlarga fan sirlarini o‘rgatgan bo‘lsalar-da, keyinroq o‘zini butunlay ijodga bag‘ishladi. Ayniqsa, uning teatr sohasidagi faoliyati samarali kechdi. U taklifga binoan, Andijon viloyati Yoshlar teatriga ishga keldi va to nafaqaga chiqquncha o‘n yillar davomida shu dargohda mehnat qildi. Faoliyati davomida unda endi dramaturgiya sohasiga qiziqish uyg‘ondi. Mustaqillik, Navro‘z umumxalq bayramlari, turli-tuman ahamiyatli tadbirlarga oid qator ssenariylar yozdi (27-yil davomida!). Natijada, sahna sohasida ham shoir ancha ko‘zga ko‘rinib qoldi. Ziyo Najmiy qalamiga mansub “Mo‘jizalar olami yoxud Sanoyi nafisa”, “Zanjirband sher”, “Gisuburida yoxud qirqilgan kokillar”, hammualliflikdagi “Qorboboning yangi yil sarguzashtlari” kabi sahna asari va bolajonlar uchun ertak-tomoshalari muvaffaqiyatli sahnalashtirilib, muallifga obro‘ keltirdi. Rejissyorlar shundan keyin Ziyo akaga murojaat qiladigan bo‘lishib qoldi.

Andijon viloyati qo‘g‘irchoq teatrida esa, uning “Alla – jonning rohati” spektakli Abdurashid Cho‘qqiyev tomonidan sahnalashtirildi.

Ziyo Najmiy ijodiy faoliyatining yangi qirrasi bo‘lgan dramaturgiya yo‘nalishidagi asarlar nafaqat sahnalashtirildi, balki, respublika ko‘rik-tanlovlarida ham g‘olib va sovrindor bo‘ldi.

So‘nggi yillarda serqirra ijodkorning bitta dramalar va yana bir g‘azallar kitobi dunyo yuzini ko‘rdi.

Keyinchalik qahramonimiz Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi viloyat musiqali drama va komediya teatriga ishga o‘tdi. Mana bir necha yillardirki, u mana shu dargohda hormay-tolmay mehnat qilib, adabiy emakdosh sifatida, mazmunli, umrboqiy sahna asarlarining ro‘yobga chiqishiga bosh-qosh bo‘lmoqda, o‘zi ham tinch turgani yo‘q – yangi-yangi sahna asarlari ustida ishlamoqda. Chunonchi, oxirgi yillarda pedagog-shoir-dramaturg tomonidan otashin ajdodimiz, isyonkor o‘zbek shoiri Boborahim Mashrabning sarguzashtlarga, dramatizmga boy hayoti haqida “Shohi qalandar” she’riy dramasi yaratildi. Bu asarning yaratilishiga, muallifning Mashrab Devonlarini mutolaa qilishi, uning murakkab va tanholikdagi shaxsiy hayotiga bo‘lgan qiziqish bois bo‘lganini o‘zaro muloqotlarda bir necha marotaba so‘ylab bergan. Shu bilan birga, Ziyo Najmiy O‘zbekiston va Tojikiston xalq artisti, elimizning sevimli hofizi, hamyurtimiz Sherali Jo‘rayev hayoti haqida so‘z yuritiladigan “Kuydi jonim, kuydi” asarini yaratdi.

-Sher aka haqida uning tirikligida ham, vafotidan keyin ham turli-tuman rakurslardagi baholar to‘xtamadi,-deydi muallif.-lekin, uning yuzlab qo‘shiqlari, “Sherali va Oybarchin” sahna asari, turli mavzulardagi o‘zi yozib, ijro etgan she’ru g‘azallari, nasriy asarlari, kitoblari boy adabiy-madaniy meros bo‘lib qoldi. Shuning uchun, men yuqoridagi sahna asarini yaratishga azm etdim. U, respublikadagi badiiy kengashga havola etildi.

Muallifning uchinchi sahna asari komediya janrida bo‘lib, “Yettinchi qovurg‘a yoxud, ayol bilan olam munavvar”, deb ataladi. Bularning bari muallif ijodining rang-barangligini, ayni choqda, ancha salmoqli va boy ekanligini ham ko‘rsatib turibdi. Jamoada ishlar ekan, Ziyo Najmiy turli tadbirlar, jamoat topshiriqlari, anjumanlarda ishtirok etishni ham kanda qilmaydi. Uning otaxon teatr jamoasi bilan bir oila a’zosidek yakdil bo‘lib ketishida, shaxsiyatidagi qabariq ijobiy xislatlar muhim rol o‘ynagani tabiiy, albatta. Teatr direktori Behzodbek Kamoldin o‘g‘li Homidov, san’atkor do‘stimiz, xushovoz xonanda A’zamjon Sultonov va boshqalardan Ziyo akaning ibratli jihatlari, fidoyiligi, shu bilan birga, oilaparvarligi, do‘stparvarligi haqida ko‘p yaxshi gaplar eshitib turamiz va bunga o‘zimiz ham guvohmiz. Ishonamizki, Ziyo akada hali yozilajak she’ru g‘azallar, sahna asarlari g‘oyalari ko‘p. Ular ham qog‘ozga tushishi, shubhasiz, ulkan Andijon muhitiga salmoqli hissa bo‘lib qo‘shiladi. Kuni kecha ochilgan viloyat teatrining yangi mavsumidagi aytilgan fikrlar ham ijodkor qalbida yangi-yangi g‘oyalarni shakllantirgani shubhasizdir.

Yetmish yoshini qarshilayotgan shoir va dramaturg, ko‘plab yoshlarning ustozi, ibratli umr yo‘llari va yig‘gan hikmatlarini bir-bir sarhisob qilayotgan qadrligimiz Ziyovuddin hoji Najmiddinovga Yangi O‘zbekistonimizning yashaydigan zamonlarida qalbingiz davrimizning dolg‘alariga hamohang urishdan aslo to‘xtamasin, deb qolamiz.

Yetmishga yetganga – olam charog‘on,
Ijodda tajriba, qalam charog‘on.
Yaxshiga yo‘llasam dil ehtiromim,
Dil yashnab, shubhasiz, xonam charog‘on!

Ha, shoir, albatta – haq!

Ikromjon ASLIY,
O‘zbekiston va Xalqaro Turon Yozuvchilar uyushmalari a’zosi, shoir va adib.



TALABA QIZLAR O‘RTASIDA “EKOZAKOVAT” TURNIRI BO‘LIB O‘TDI

O‘zbekiston Ekologik partiyasi Andijon viloyat partiya tashkiloti tashabbusi bilan bugun viloyatdagi davlat oliy ta’lim muassasalari talaba qizlari o‘rtasida “EKOZAKOVAT” intellektual turniri o‘tkazildi.

Mazkur bellashuv davlatimiz rahbarining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida qabul qilingan PF–16-son Farmoni hamda PQ–184-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosi asosida tashkil etildi.

Turnirda viloyatdagi oltita davlat oliygohi talaba qizlari ishtirok etib, ekologiya, tabiatni asrash, yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish masalalariga oid savollarga javob berdilar. Ishtirokchilar global ekologik muammolar bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirgan holda, ularning yechimlari yuzasidan ham bahs-munozaralar olib bordilar.

- Yoshlarning ekologik madaniyatini shakllantirish, atrof-muhitni asrab-avaylash va ekologik muammolarni oldini olish borasida partiyamiz tomonidan ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi turnirda viloyatdagi oltita davlat oliygohi talabalari o‘zaro bellashib, bilim va dunyoqarashlarini yana bir bor sinovdan o‘tkazdilar, - deydi O‘zbekiston Ekologik partiyasi Andijon viloyat Kengashi raisi Xurshidbek Yusupov.

Turnir natijalari quyidagicha bo‘ldi: 1-o‘rin — Andijon davlat pedagogika instituti jamoasiga,2-o‘rin — Andijon davlat chet tillari instituti jamoasiga, 3-o‘rin — Andijon davlat universiteti jamoasi.

Tadbir davomida kuy-qo‘shiqlar yangradi, ekologik tarbiya va tabiatni asrashga oid tushunchalar berildi. Yoshlar ekologik mas’uliyatni oshirishda madaniy-ma’rifiy yondashuvning naqadar muhimligini his qildilar.

Yakunda turnir g‘oliblari va faol qatnashchilar partiya tomonidan sertifikat va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.

Muhammadrasul MAMATQULOV,
O‘zbekiston Ekologik partiyasi Andijon viloyat Kengashi matbuot xizmati rahbari.



ADOLAT MEZONI

MUASSIS: «Nurafshon gulshani» mas’uliyati cheklangan jamiyati

Muharrir: M.ORTIQOVA

Tahririyat manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko‘chasi, 71-uy.
Telegram: (+998 99) 995-19-66
E-mail: and_mezoni@inbox.uz

Gazeta Andijon viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 2010-yil 16-martda 04-040 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr ko‘rsatkichi - 2536

Gazeta tahririyat kompyuter bo‘limida terildi va sahifalandi.
«ZAKOVAT» nashriyot uyi MCHJda original maket asosida chop etildi.
Chop etishga topshirish vaqti 03.10.2025-yil, soat 11.00.
Chop etishga topshirildi 03.10.2025-yil, soat 14.00.
Korxona manzili: Kosonsoy shahri, Chorbog‘ ko‘chasi, 17-uy.
Hajmi 2 bosma taboq. Qog‘oz bichimi A-3. Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma № 11966. 188 nusxada bosildi.

Navbatchi: M.Mamatqulov. Dizayner: Sirojiddin Mamadali o‘g‘li